



МАЙ
ИЮНЬ
2021
КИЕВ,
УКРАИНА

ДИСТАНЦИОННЫЕ
ВОЗМОЖНОСТИ И
ДОСТИЖЕНИЯ НАУКИ

ДИСТАНЦИОННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ДОСТИЖЕНИЯ НАУКИ

PEDAGOGICAL SCIENCES

Bekmurodova Manzura Bahodir qizi	
MODDALARNING TUZILISHIGA OID TUSHUNCHALARNI INTERFAOL METODLAR YORDAMIDA TUSHUNTIRISH	40
Mamatova Zilolaxon Xabibulloxonovna	
RAQAMILI TEXNOLOGIYALAR ASRIDA ONA TILI FANINI O'QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	42
P.O.Adilov	
CHIZMACHILIK FANINI O'QITISH JARAYONIDA TALABALARNI TEXNIK IJODKORLIKKA YO'NALTIRISH METODIKASI.....	44
Tashimov Nurlan Erpolatovich dotsent	
TALABALAR CHIZMA GEOMETRIYA MATERIALLARINI ONGLI RAVISHDA IDROK QILISHDA ANIMATSIYANING ROLI.....	47

PHILOLOGICAL SCIENCES

Abdukayumova Sanobar	
PROBLEMS OF UZBEK LEXICOGRAPHY.....	50
Allaberdiyeva Durdona	
QADIMGI TURKIY YODNOMALAR VA TURKIY EPOSLAR O'RTASIDAGI G'OYAVIY- ESTETIK ADAPTATSIYA.....	52
Ne'matjonova Nigora No''monjon qizi, Nosirjon Uluqov	
LEKSIK-SEMANTIK USUL BILAN OTLARDAN TOPONIMLAR YASALISHI.....	54
Tursunov Otabek	
SPORT DISCOURSE	57
Xaydarova Go'zalxon	
INGLIZ TILI FRAZEOLOGIYASINING SEMANTIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	59
Насирова Гулнора	
ЭМОЦИОНАЛ КОНЦЕПТЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ	61

PSYCHOLOGICAL SCIENCES

M. N. Ergasheva	
MAKTABGACHA TARBIYA YOSIDAGI BOLALAR IDROKINI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYACHI VA PSIXOLOGLARNING O'RNI VA AHAMIYATI.....	63

TECHNICAL SCIENCE

Mavlonov Ulug'bek Mirzoqulovich, Hakimova Sabina Shamsiddin qizi,	
Hakimov Bexruz Temir o'g'li	
QUYOSH QURITGICHI QURILMASINI YARATISH VA ISHLASH REJIMINI TADQIQ QILISH	65
Ravshanov Mustaqim Tavakalovich	
MOLEKULALARARO TA'SIR KUCHLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	67
Ибрагимов Салим Сафарович	
ПАСТ ПОТЕНЦИАЛЛИ СУВ ЧУЧИТГИЧ ҚУРИЛМАСИНинг СИНОВ НАТИЖАЛАРИ.....	69
Мирзаев Мирфайз Салимович, Самиев Камолиддин Аъзамович	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ В УСОВЕРШЕНСТВОВАННОМ НАКЛОННО - МНОГОСТУПЕНЧАТОМ СОЛНЕЧНОМ ОПРЕСНИТЕЛЕ НА МАТЕМАТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ.....	71
Arziqulov Farhodjon Ne'matjonovich, Solijanova Kamolaxon Abdushukur qizi	
MATRITSALAR ALGEBRASIDA 2-LOKAL IKKI TOMONLAMA KO'PAYTIRISHLAR TAVSIFI	73

ДИСТАНЦИОННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ДОСТИЖЕНИЯ НАУКИ

PEDAGOGICAL SCIENCES

MODDALARNING TUZILISHIGA OID TUSHUNCHALARNI INTERFAOL METODLAR YORDAMIDA TUSHUNTIRISH

Bekmurodova Manzura Bahodir qizi
Buxoro davlat universiteti
Fizika kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Moddalarning tuzilishiga oid tushunchalarni yoshga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda interfaol metodlar yordamida tushuntirish bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni to'liq shakllantirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: "Ertak" usuli, "Rolli o'yinlar" usuli, "BBB" metodi, topishmoq, maqol.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatimizda raqobatbardosh, dunyo- qarashi keng kadrlarni yetkazib berish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Bu masalani yechishda har bir pedagog xodim o'z hissasini qo'shmog'i lozim. Moddalarning tuzilishiga oid tushunchalarni yoshga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda interfaol metodlar yordamida tushuntirish bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni to'liq shakllantirish imkonini beradi. Mavzuni mustahkamlashda esa topishmoq va maqollardan foydalanish o'zining samarali natijasini beradi. Maktablarimizda 6-sinf o'quvchilar fizika kursiga endigina qadam qo'yanligi sababli, ularga moddaning agregat holatlariga oid bilim ko'nikma malakalarini "ertak" usulida shakllantirilsa yuqori natijaga erishish mumkin. Fizika kursidan ma'lumki moddalar uch xil agregat holatda bo'ladi. Bular: qattiq, suyuq, gaz holatlar. Shularni hisobga olgan holda quyidagicha "ertak" yozish mumkin. Ertakning bosh qahramonini tomchixon deb nomlaymiz va uning gaz, suyuqlik va qattiq jismlar saltanatlariga sayohatini ko'rib chiqamiz..

Bor ekan-da yo'q ekan ertaklar olamida tomchixon yashar ekan. Tomchixon yolg'izligidan zerikib qolibdi. U o'ziga do'sta uy izlab ertaklar mamlakati bo'ylab safarga chiqibdi. U yurib-yurib sehrli bir tosh oldiga kelib qolibdi. Tosh sehrli bo'lganligi tufayli yo'l ko'rsatuvchi ekan. Tomchixon sehrli tosh oldida to'xtab, unda yozilgan so'zlarni o'qib ko'ribdi. Sehrli toshda chap tomonga yursang gaz saltanatiga, to'g'riga yursang suyuqliklar saltanatiga, o'ng tomonga yursang qattiq jismlar saltanatiga borib qolasan degan yozuv bor ekan degan yozuv bor ekan. Tomchixon omadini gaz mamlakatidan topishga qaror qilibdi.

Tomchixon suv bug'lari saltanatiga kelib qoldi. Bu mamlakatda ASHIKKIO deb nomlangan molekulalar yashar ekan. Ular ikkita vodorod va kislordan iborat edilar. Ularning xususiyatlari o'zgachadir. Ular gaz qonunlari asosida yashar ekan-lar. Aniq shakl va hajmg'a ega emas. Yashash joylari aniq emaslididan, Tomchixon afsuslandi. Gohida bankada, gohida rezina koptok ichida . Agar sehrgar siqa bosh- lasa, bug' molekulalari siqilib qolishar ekan. Agar koptokni qizdira boshlasak molekularning tezligi oshib har tomonga uchib, to'xtovsiz harakatga tushishini ko'rgan Tomchixonning fikri o'zgarib qoldi. Ertakni xuddi shunday suyuqlik va qattiq jismlarning xossalardan foydalanib davom ettirish mumkin. Mana shu tarzdagi ertakdan foydalanib mavzuni tushuntirish mumkin. Mavzuga mos topishmoq yordamida mavzuni mustahkamlash mumkin.

8-sinf o'quvchilar davlat ta'lif standarti bo'yicha fizika kursining elektr bo'limini o'rganishadi. Jismlarning zaryadlanishining mohiyatida atomning tuzilishi yotadi. Atomning tuzilishi mavzusini o'quvchilarining ishtirokida "atomning o'quvchili modeli" ni yaratish asosida tushuntirish to'liq bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Bunda o'quvchilar xuddiki atomning tuzilishiga mos rol ijro etishadi. O'quvchilarining har biri bajargan roliga mos so'z yozilgan belgini qo'lida ushlab turadi va roliga mos she'rlarni aytishadi. She'rlarda proton , elektron va neytronga mos xususiyatlar aks etgan bo'ladi.

Modda tuzilishiga oid mavzulardan yana biri "moddalarning molekul- yar tuzilishi". 9-sinf fizika kursida o'quvchilarda molekulyar fizika va termodina- mika bo'limiga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar shakllantiriladi. 9-sinf o'quvchilarida mavzu bilan ishlash ko'nikmasi shakllangan bo'ladi. 9-sinf o'quvchilarida moddaning molekulyar tuzilishiga oid bilimlardan , faqat, molekul-

ДИСТАНЦИОННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ДОСТИЖЕНИЯ НАУКИ

yar kinetik nazariyaning asosiy qoidalari shakllantirilmagan bo'ladi. Qolgan tushunchalarni 6-sinfda va 8-sinfda o'zlashtirgan boladi. Shuning uchun ham bu mavzuning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini "BBB"-Bilaman, Bilib oldim, Bilishni xoxlayman metodi yordamida shakllantirish yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichini beradi.

Ushbu maqoladagi metodlar yordamida darslar tashkil etilsa moddaning tuzilishi, moddaning agregat holatlari, atom tuzilishiga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini to'liq shakllantirish uchun zamin yaratadi. Mavzuni mustahkamlashda esa topishmoq, maqol va she'rlardan foydalanish o'zining samarali natijasini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Saidov.Q.S. , Bekmurodova.M.B. Complex movement of object // International Scientific Journal 85:5 (2020), pp. 316-322
2. Saidov.Q.S. , Bekmurodova.M.B. The problem of teaching heat transfer and heat exchange in schools and lyceums // JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal 6:9 (2020), pp. 176-183
3. N.Sh.Turdiyev va boshqalar Umumiyl o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik Cho'lpon nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi, 201318-41 betlar
4. P.Habibullayev va boshqalar Umumiyl o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik "Davr" nashriyoti ,2019 9-11 bet
5. Sh.I.Istamova Ta'limning faol metodlari. Metodik qo'llanma. Fan va texnologiyalar- 2006
6. P.Habibullayev, A.Boydedayev, A.Bahromov, K. Suyarov, J.O'sarov, M. Yuldasheva Umumiyl o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi Toshkent-2019 , 4-37 betlar